XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 11 - oktabr VI-48-79-10-214-K/22 Ohangaron shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Ohangaron shahridagi mavjud nomlari davlat ro‘yxatidan o‘tmagan geografik obyekt (3 ta qabriston, 2 ta kanal) larga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil 14-fevraldagi 01-14-154-sonli yig‘ilish Bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 19-fevraldagi 1/SF-4-910-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari N.Mirzayevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil 14-fevraldagi 01-14-154-sonliyig‘ilish Bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi mavjud 3 ta qabriston 2 ta kanallarning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati ilovaga asosan

tasdiqlansin.

3. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi (J.Sherov), shahar bosh imom xatibi (A.Akmalov) 1 oy muddatda shahardagi mavjud qabristonlarni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (N.Mirzayeva) ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar qurilish bo‘limi boshlig‘i (I.Begmatov), kadastr agentligining shahar bo‘limi boshlig‘i (A.Mamadaliyev), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali boshlig‘i (F.Qo‘shmatov) shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Mo‘minov), shahar statistika bo‘limi boshlig‘i (R.Saipov), shahar moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Yuldashev), shahar davlat xizmatlari markazi va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha nomlarini davlat ro’yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirsinlar.

5. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Akilov) hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (N.Mirzayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2022 yil 11 oktabrdagi
VI-48-79-10-214-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shahardagi mavjud 3 ta qabriston 2 ta kanallarning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1.	Qabriston	No‘g‘oyqo‘rg‘on M.F.Y	Nomsiz	Munchoqtepa
2.	Qabriston	Ohangaron shahri	Nomsiz	Xristian-2
3.	Qabriston	Ohangaron shahri	Nomsiz	Xristian-3
4.	Kanal	Namuna M.F.Y, Oxunboboyev M.F.Y, Umid M.F.Y.	Nomsiz	Xo‘jabaland
5.	Kanal	Yangiobod M.F.Y, Xonobod M.F.Y	Nomsiz	Xo‘jaro‘zmat